



“FASOHAT MULKINING SULTONI” DA INSON OBRAZI

Aziza Sherqo‘ziyeva

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada navoiyshunos olim Botirxon Akramovning “Fasohat mulkining sultoni” monografiyasi asosida Alisher Navoiyning badiiy merosida inson obrazining talqini tahlil etiladi. Asarda inson — borliqdagi eng muqaddas mavjudot, ma’rifatga intiluvchi, komillik sari harakatlanuvchi ruhiy va tafakkuriy salohiyat egasi sifatida yoritiladi. Tadqiqotda til, nutq va fasohat tushunchalari markaziy o‘rin tutib, inson obrazining ma’naviy va badiiy ko‘rinishi, shuningdek, axloqiy mas’uliyati ochib beriladi. Botirxon Akramov Navoiy she’riyati orqali insonni “sarvar” darajasiga ko‘targan, uning ruhiy yuksalishi va ijtimoiy nurlanishini badiiy-falsafiy mezonlar asosida tahlil qilgan. Tadqiqot bu g‘oyaning zamonaviy ma’naviy jarayondagi ahamiyatiga ham e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: inson, sarvar, adabiy obraz, fasohat, komillik, ma’rifat, ruhiy dunyo, til va nutq, ma’naviy markaz

Abstract. This article analyzes the interpretation of the image of man in the artistic heritage of Alisher Navoi based on the monograph “The Sultan of the Property of Eloquence” by the Navoi scholar Botirxon Akramov. The work highlights man as the most sacred being in existence, a possessor of spiritual and intellectual potential, striving for enlightenment and moving towards perfection. The concepts of language, speech and eloquence occupy a central place in the study, revealing the spiritual and artistic appearance of the human image, as well as its moral responsibility. Botirxon Akramov, through Navoi’s poetry, elevated man to the level of “sarvar”, analyzed his spiritual elevation and social radiance based on artistic and philosophical criteria. The study also draws attention to the importance of this idea in the modern spiritual process.

Keywords: man, sarvar, literary image, eloquence, perfection, enlightenment, spiritual world, language and speech, spiritual center

Adabiy asarlarda inson mavzusi — eng muhim, eng qadimiy va doimiy dolzarb mavzulardan biridir. Inson – adabiyotning avvali va oxirini qamrab oluvchi bosh mavzu. U badiiy asarlarning markaziy figuralaridan biri bo‘lib, hayoti, ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari, azoblari, iymoni va e’tiqodi orqali asarning ma’naviy asosini tashkil etadi. Qadim zamonlardan boshlab, yozma va og‘zaki ijodda insonning tabiati, jamiyatdagi o‘rni, qalb olami, axloqiy-ma’naviy izlanishlari doimo e’tibor markazida bo‘lib kelgan.

Har bir adabiy obraz — bu muayyan bir inson timsolidir. U orqali yozuvchi yoki shoir muayyan g‘oyani, ijtimoiy haqiqatni, ruhiy kechinmani ifodalaydi. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida inson komillikka intiluvchi, axloqiy ‘oklik va ilohiy ishqqa cho‘mgan bir mavjudot sifatida tasvirlanadi:

“Kimki inson erur, insonni sev,
Sevmagil anga hayvonni sev...”
(Navoiy, “*Mahbub ul-qulub*”)

Ushbu baytda insoniylik eng oliy fazilat sifatida e’tirof etiladi.

Olamning yaratilari ichida inson timsoli yuksak darajani egallaydi. Nafaqat jismu jasad, balki ruh, qalb, iroda va ma’naviyatni jamlagan bu mavjudot haqida buyuk mutafakkirlar doim bosh qotirib kelganlar. Alisher Navoiy ijodida inson siymosi ayni shu badiiy-falsafiy nuqtadan turib mushohada qilinadi.

Adabiyotshunos olim, 20 asr ikkinchi yarmida ilmiy faoliyat yulib borgan navoiyshunos Botirxon Akramov esa bu timsolni “Inson-barchaning sarvari” maqolati orqali yana-da yoritadi. Mazkur maqola adibning “Fasohat mulkingg sultoni” monografiyasidan joy olgan.

“Fasohat mulking sultoni” asarida inson obrazi yuqori badiiy mahorat bilan ishlangan bo’lib, u faqat yakka shaxsning sifatlarinigina emas, balki umuminsoniy komillikning ramzi sifatida tasvirlanadi. Muallif insonni til va nutq orqali o’zgaruvchi, mahnaviy yuksaklikka intiluvchi jonli mavjudot sifatida ko’rsatadi.

Inson sulton darajasiga nutqning go’zalligi, fikrlashning aniqligi va qalbdagi sadoqat orqali yetishi mumkin. Uning nutqi faqatgina tuyuq mahnolar bilan to’lib to’shgan so’zlar emas, balki jamiyatga tahsir etuvchi mahrifat manbaidir. Fasohat orqali inson o’z ruhiyatini ifoda etadi, o’z bag’rikengligini, odob-axloqini va bilimini namoyon qiladi.

Muallif insonni fasohat orqali mahrifiy sultonga aylantiradi. Uning tili – qalb ko’zgusi. SHu tariqa, til obrazi orqali insoniylik, komillik va ijtimoiy mashuliyat kabi tushunchalar yoritiladi. Badiiy jihatdan tashbehlar, metonimiya va qiyoslar orqali insonning ichki dunyosi bo’yoqlanadi. Masalan, “so’z shamchisi” kabi iboralar uning nur tarqatuvchi, mahrifat yo’lida yetakchi shaxs ekanligini tahkidlaydi.

Muallifning ta’kidlashicha, Navoiy “insonni olamning mazmuni, hayotning maqsadi, ma’naviy kamolotning timsoli” deb bilgan. Uning asarlarida inson — bu yuksak g’oya, badiiy-falsafiy tushuncha, yurakdagi Ka’ba, ruhdagi Arsh.

“Ka’baki, olamning o’lub qiblasi,
Qadri yo’q andoqki, ko’ngul ka’basi”¹

Ushbu baytda Navoiy inson qalbini bevosita Ka’baga qiyoslaydi. Bu yerda tashqi muqaddaslik emas, balki ichki ‘oklik, insonning ma’naviy markazga aylanishi haqida so’z boradi. Shu ma’noda, Botirxon Akram Alisher Navoiy “inson” tushunchasini ilohiy manzilatga olib chiqqanini ta’kidlaydi.

Maqolada insonning badiiy siymosi ruhiy dunyo bilan uyg’un tarzda ochib beriladi. Inson kamolot sari harakatlanuvchi ilohiy mashuliyat egasidir. Botirxon Akram aytganidek, inson “olamning sarvari” bo’lishi uchun doimiy ravishda o’zini anglab borishi, o’z qalbini ‘ok tutishi kerak. Bu hol Navoiy she’riyatida ko’lab ramzlar, timsollar vositasida yoritilgan: “arsh”, “nukta”, “dil”, “ruh”, “ishq”, “ma’rifat” kabi tushunchalar inson ichki olamining shakllanish bosqichlari sifatida talqin etiladi.



Botirxon Akramov bu falsafani sharhlar ekan, nafaqat Navoiy fikrlarini tahlil qiladi, balki ularni bugungi kungi jarayonning mahnaviy jabhasiga tatbiq etadi. U inson degan muqaddas mavjudotni o'zligini anglagan, imon va axloq asosida yashaydigan, jamiyatga nur ulashuvchi sifatida ko'rsatadi.

“Inson o'z ko'nglini arsh darajasiga yetkazmog'i kerak. Unda so'zgu amal, ilmgu irfon, haqiqatgu adolat birlashgan bo'lmog'I darkor.”²

Bu so'zlar asar falsafasining (qaysi asar falsafasini, bu yerda maqola haqida so'z yuritayabmiz, shu fikrni to'g'rilang)mohiyatini ochadi: inson yuksaklikka yo'l olishi kerak. Uning borlig'i — jamiyatda ijobiy o'zgarishlarning kalitidir. Asarda insonning o'z qalbini tarbiyalashi, yuksak fazilatlar bilan yashashi ta'kidlanadi – bu haqiqiy “sarvar”lik mezoni.

Botirxon Akramning “Fasohat mulkinging sultoni” asarining 5-maqolatida ilgari surgan “Inson-barchaning sarvari” g'oyasi Navoiy ijodining eng chuqur qatlamlaridan oziqlanadi. Bu maqolat orqali muallif buyuk mutafakkir ijodiga nafaqat ilmiy-didaktik sharh beradi, balki har bir o'quvchini insonlikning mohiyatini chuqurroq anglashga chorlaydi. Uni saqlash, ardoqlash va ruhan yuksaltirish — barchamizning ma'naviy burchimizdir. Botirxon Akram insonni “olamning sarvari” deb atar ekan, uni faqat jism emas, balki ruh va tafakkur darajasida yuksaluvchi zot sifatida ko'rsatadi.

"Fasohat mulkinging sultoni" asarida inson obrazi nutq go'zalligi va fikr chuqurligi orqali yuksak badiiy darajada tasvirlanadi. Asardagi inson til orqali nafaqat o'z ruhiy dunyosini ifoda etadi, balki jamiyatga ma'naviy nur sochuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Muallif fasohatni inson komilligiga eltuvchi vosita sifatida ko'rgan. Bu yondashuv orqali nutq va tafakkur inson qiyofasining markaziga aylantiriladi.

Masalan, “So'z shamchisi” iborasi insonning ma'rifat tarqatuvchi rolini ta'kidlaydi. U oddiy tinglovchiga emas, balki qalblarga yo'l topadi. Bu obraz orqali tilning samimiy va ruhiy kuchi ko'zga tashlanadi.

Yana bir misol – “Fasohat bilan xalq qalbiga yo'l topgan sulton” iborasi orqali inson nutq orqali jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fasohat uning ijtimoiy ta'sirini kuchaytiradi va uni sulton darajasiga ko'taradi.

“Til — qalb ko'zgusi” iborasi esa insonning ichki dunyosi til orqali ochilishini anglatadi. So'zlari orqaligina emas, balki u fikr va hissiyotlar orqali o'z haqiqatini namoyon etadi.

Shuningdek, “Fikrdan to'zigan so'zlar” misoli insonning tafakkur boyligini aks ettiradi. Nutqning g'oyaviy chuqurligi va ma'rifiy salmog'i uning intellektual darajasini belgilaydi.

Asarda inson obrazi ideal darajada fasohatli, fikrli, ma'naviy yetuk va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tasvirlanadi. Til va fikr uning asosiy kuchi, jamiyat esa uning fasohatidan bahramand bo'lgan makondir.

Xulosa qilib aytganda, asarda inson obrazi fasohat orqali namoyon bo'ladi — u go'zal nutq va yuksak fikrlash salohiyatiga ega, mahrifatga intiluvchi, jamiyatga nur tarqatuvchi ideal inson sifatida tasvirlangan.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. *Devonlaridan*, bayt. Buni to'ldiring, adabiyot bunday berilmaydi
2. Alisher Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. — 320 b.
3. Akram, B. *Fasohat mulkining sohibqironi*. — T.: O'zbekiston, 2015. — B. 64–68.
4. Akramov, B. *Fasohat mulkining sohibqironi: monografiya*. — Toshkent: O'zbekiston, 2015. — 120 b.
5. Akramov, B. Inson — barchaning sarvari // *Fasohat mulkining sultoni*. — Toshkent: O'zbekiston, 2015. — B. 64–68.
6. A'zamova, M. Alisher Navoiy asarlarida komillik tushunchasi. // *Ma'naviyat va ma'rifat ilmiy jurnali*. — 2019. — №4. — B. 45–50.
7. Zokirov, S. Inson konsepti o'zbek mumtoz adabiyotida. — Toshkent: Fan, 2002. — 210 b.
8. Hakimova, S. Inson va jamiyat — Navoiy asarlarining asosiy mezoni // *Adabiyot ta'limi*. — 2020. — №2. — B. 28–33.
9. Sheralieva, N. Til va fasohat masalalari Navoiyning nazariy qarashlarida. — Qarshi: Nasaf, 2017. — 154 b.
10. Karimov, F. Alisher Navoiy: Hayot, ijod va falsafa. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. — 368 b.